

## QIZILQUMNING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

*Karimbayev Qoylibay Konisbayevich*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

*[qoylibayk@gmail.com](mailto:qoylibayk@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Maqolada Qizilqum cho'lining geografik joylashgan o'rni va tabiiy geografik xususiyatlari bo'yicha ayrim ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu cho'lni ilmiy tadqiq qilgan olimlarning tadqiqotlari va izlanishlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qizilqum cho'li, zona, rayonlashtirish, fauna, cho'l geotizimi

**Аннотация.** В статье представлены некоторые сведения о географическом положении и природно-географических особенностях пустыни Кызылкум. Дана информация об исследованиях ученых, которые занимались научным изучением этой пустыни.

**Ключевые слова:** пустыня Кызылкум, зона, районирование, фауна, пустынная геосистема.

**Abstract.** The article presents some information on the geographical location and natural geographical features of Kyzylkum Desert. Information is given about the research of scientists who were engaged in the scientific study of this desert.

**Key words:** Kyzylkum desert, zone, zoning, fauna, desert geosystem

Qizilqum cho'li janubdan janubi-sharqqa Zarafshon vodiysi va Nurota tog'lari, janubi-g'arbda Amudaryo oazisi, shimoli-g'arbda Orol qumi, shimol va shimoli-sharqda Sirdaryo oazisi bilan chegaradosh. Bu hududlardagi cho'lining umumiy maydoni 300 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. U o'zining geografik joylashuvi va ta'siri bo'yicha o'ziga xos xususiyatga ega, shuning uchun u qo'shni hududlarning ob-havo va iqlimiga ta'sir qiladi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, Qizilqum cho'li janubi-sharqdan shimoliy-g'arbg'a qarab pasayib borayotgan tekis relyefga ega bo'lib, bu pasayish jami 300-53 m ni tashkil qiladi. 1940-yillarda Qizilqum tabiatini o'rgangan zoolog Lemani bu yerdagi o'simlik dunyosining boyligini qayd etgan. Samarqand, Buxoro, Karmana, Konimex, Qizilo'rda, Chimkent, Qoraqalpog'istondan kelgan yuz minglab qoramollar serhosil yaylovlarda boqilgan [1].

Qizilqum cho'lining tabiati, tabiiy resurslarga boyligi, aholi zichligining nihoyatda pastligi, inson xo'jalik faoliyati ta'sirida daryo vodiylari, tog'oldi tekisliklari va tog'orologi nisbatan nihoyatda kam o'rganilganligi qadimgi tabiatshunos olim va sayyohlarning e'tiborini o'ziga jalb etgan. Uning tabiiy sharoiti va resurslari to'g'risidagi hozirgi tasavvurlarimiz bir necha avlod tadqiqotchi geograflarning mashaqqatli xizmatlari evaziga vujudga kelgan, shakllangan va takomillashgan.

So'nggi yillarda tabiat va jamiyat o'rtasidagi mutanosiblikni salbiy tomonga o'zgarishi, tarixiy shakllangan geoekologik muvozanatning buzilishiga va atrof muhitni inson salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik tanglik darajasiga olib keldi. Buning natijasida O'rta Osiyo o'lkasida, jumladan Qizilqum cho'lida o'ziga xos

regional geoekologik muammolar paydo bo'ldi. Shu munosabat bilan landshaft tadqiqot ishlarida va tabiiy geografik rayonlashtirishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan landshaft-ekologik yondashish muammosi ham geograflarning e'tiborini o'ziga jalb qila boshladi. Qizilqumni tabiiy geografik rayonlashtirish muammosi E.M.Murzaev [12], V.M.Chetirkin [14], N.A.Korjenevskiy [11], L.N.Babushkin, N.A.Kogay [8], T.V.Zvonkova [10], P.Baratov [9], A.A.Abdulqosimov, S.B.Abbasov [7] va boshqalarning ishlarida o'z aksini topgan. Qizilqum landshaftining dinamikasi, ekologiyasi va resurslari ko'plab monografiyalarda o'z mohiyatini topgan [5, 6].

S.B.Abbasov [4] Qizilqumning cho'l landshaft majmualarini uchta zonachaga – shimoliy cho'l, tipik cho'l va janubiy cho'l zonachalariga ajratish maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan.

L.N.Babushkin va N.A.Kogay O'zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirishda Qizilqum cho'lini tabiiy geografik okrug deb qarab, uning tarkibini tabiiy geografik rayonlarga ajratgan. Har bir tabiiy geografik rayon tarkibini 2 tadan 6 tagacha landshaft – tipologik majmualar tashkil etadi. Qizilqum okrugi Shimoliy va Janubiy rayonga bo'lingan. Shimoliy rayonga Sulton Uvays tog'i, Shimoliy Qizilqum va Bo'kan-Etimtov tabiiy geografik rayonlari; Janubiy rayon guruhiga Janubiy-Qizilqum va Tomdi-Quljuqtog' rayonlari kiradi. Markaziy Qizilqumga esa asosan Bo'kan-Etimtov va Tomdi-Quljuqtov rayonlari kiradi [13].

Qizilqumning yaylov resurslarini tadqiq etishda, qumli va gilli cho'llarni fitomelioratsiyalash yo'li bilan antropogen yaylovlarni vujudga keltirishda va ulardan oqilona foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Qorako'lhilik va cho'llar ekologiyasi instituti xodimlarining ham xizmati katta. M.M.Maxmudov (1968-2002). Sh.R.Ubaydullaev (1991) va R.X.Hayitboevlarning (2002) cho'l o'simliklarini introduktsiyalash, mahalliy sharoitda mos fitotsenozlar yaratish va ularning ekologiyasini tadqiq etish borasida amalga oshirilgan ilmiy-amaliy ishlari va erishilgan yutuqlari respublika chorvachiligini, xususan qorako'lhilikni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

L.Kapustina Qizilqum cho'lining markaziy qismidagi hozirgi o'simliklarni an'anaviy floristik, geobotanika va ekologik usullar bo'yicha o'rganilgan ma'lumotlar asosida Qizilqum cho'li o'simliklarining degradatsiyasi darajasini topografiya va GIS bilan aniqlangan [2].

Qizilqum tabiatini geografik komponentlari bo'yicha o'rganishda tashkil etilgan Konimex kompleks ekspeditsiyasining xizmati diqqatga sazovordir. U adabiyotlarda Janubi-G'arbiy Qizilqum ekspeditsiyasi deb ham ataladi. Ekspeditsiyaning asosiy vazifasi maydoni 3mln gektardan ortiq bo'lgan cho'l geotizimlarini tabiiy-tarixiy jihatdan kompleks tadqiq etish va ulardan qishloq xo'jaligida foydalanish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat bo'lgan. Ayniqsa ekspeditsiya dasturida Janubi-G'arbiy Qizilqumning o'simlik qoplamini mufassal o'rganishga va kartalashtirishga, yem-xashak resurslariga hamda yaylovlarga miqdor va sifat jihatdan tasvif berishga katta e'tibor berilgan.

Qizilqumning faunasi rang-barang va betakror. Bu yerdagi hayvonlar, o'simliklar kabi, iqlim sharoitida qurg'oqchilikka, yozning haddan tashqari haroratiga juda moslashadi. Bu joyning faunasi turlarning ozligi, o'ziga xos rang-barangligi va tungi hayot faolligi bilan boshqa joylardan farq qiladi [3]. Qizilqumda 600 dan ortiq o'simlik turlari mavjud. Ular ichida keng tarqalganlari bahorda o'suvchi efemer va efemeroidlar – rang, qo'ng'irbosh, yaltirbosh, lola, boychechak, chuchmoma, kavrak. Yozning boshlanishi bilan ular sarg'ayib qoladi, qurg'oqchilik va sho'rxok yerlarga moslashgan o'simliklar esa o'saveradi [1].

Qizilqum cho'li qorako'lchilik uchun o'ziga xos yaylov hududi bo'lib, u respublikaning boshqa qurg'oqchil yerlaridan ancha og'irroq tabiiy sharoiti bilan, ekologik sharoitlarning xilma-xilligi orasida cho'llarning ikki turi - qumli, o'ziga xos va nisbatan qulay va gipsli - o'ziga xos ekologik rejimi va qattiqligi bilan ajralib turadi. Qizilqum yaylovlarining tabiiy tiplari yem-xashak massasining past hosildorligi, yil va yil fasllarining keskin tebranishlari, yil davomida (bahordan qishgacha) yem-xashakning ozuqaviy qiymatining salbiy dinamikasi bilan ajralib turadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalilov M., Narzullaev U., Jalilova M. Natural-Geographical Features of Kizilkum. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. Volume 1, Issue 1, September, 2021. – Pp. 11-13
2. Kapustina, L. (2001). Degradation of the Vegetation in the Central Kyzylkum Desert (Uzbekistan). In: Breckle, SW., Veste, M., Wucherer, W. (eds) Sustainable Land Use in Deserts. Springer, Berlin, Heidelberg. [https://doi.org/10.1007/978-3-642-59560-8\\_26](https://doi.org/10.1007/978-3-642-59560-8_26)
3. Shalatonin B. Thousands of unique Kyzylkums. - Navoi, 1997. - P.51
4. Аббасов С.Б. Қизилқум ландшафт комплексларининг горизонтал дифференцияланиши. Ўзбекистон география жамияти VII съезд материали. Тошкент, 2006. – Б. 26-28
5. Аббасов С.Б. Қизилқум чўли ландшафтлари динамикаси ва экологияси. Монография. – Самарқанд. —СамДУ нашриёти, 2019, 176 б.
6. Абдулқосимов А.А. Проблемы изучения межгорно-котловинных ландшафтов Средней Азии. Монография. Ташкент: Фан, 1983.126 с
7. Абдулқосимов А. А., Аббасов С. Б. Ландшафтно-экологический подход в физико-географическом районировании Центрального Кызылкума. //Орол денгизи ҳавзасининг геэкологик муаммолари. Самарқанд, 1997. – Б. 56-61
8. Бабушкин Л. Н., Когай Н. А. Физико-географическое районирование Узбекистана. Труды ТашГУ, вып. 231. Ташкент, 1964. 118 с.
9. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 123 б
10. Звонкова Т. В. Средноазиатская равнинная страна. //Физико-географическое районирование. М. 1968. – С. 246 -277.
11. Корженевский Н. А. Природа Средней Азии. Ташкент, 1971. – С. 24

12. Мурзаев Э. М. Схема физико-географического районирования Средней Азии. // Известия АН РУз, серия география, 1953, № 6, – С. 18-22
13. Тўхтаева Х.Т., Рахматов Ю.Б. Рельеф пластикаси методи асосида вақтинча оқар сув ҳавзаларини районлаштириш (Марказий Қизилқум мисолида). «Geografik tadqiqotlar: innovatsion g‘oyalar va rivojlanish istiqbollari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. Toshkent, 2021-yil, 25–26-mart. –Б. 53-60
14. Четыркин В.М. Средняя Азия. Опыт комплексной географической характеристики и районирования. Тошкент. 1960. – С. 124-137